



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘ZBEKISTON MASJIDLARI ME’MORCHILIGIDA BADIY YECHIMLARNING SHAKLLANISHI

Sh.A. Isametdinova

Kafedra mudiri magistrant

M.I. Bahromova

I.A.Bahromov

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi islom madaniyatining muhim markazi sifatida tavsiflaydi. Qadimi tarixiy masjidlar faqat diniy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki ular islomiy san’at va me’morchilik yutuqlarini o‘zida aks ettiruvchi noyob yodgorliklar ekanligini ko‘rsatadi. Maqolada O‘zbekiston masjidlarining bezaklari san’at va me’morchilik nuqtai nazaridan tahlil qilinishi hamda ularning badiiy qiymati va madaniy ahamiyati yoritilishi aytilgan.

Аннотация: В данной статье описывается Узбекистан как важный центр исламской культуры в Центральной Азии. Древние исторические мечети не только имеют религиозное значение, но и свидетельствуют о том, что они являются уникальными памятниками, отражающими достижения исламского искусства и архитектуры. В статье анализируются украшения мечетей Узбекистана с точки зрения искусства и архитектуры, подчеркивается их художественная ценность и культурное значение.

Annotation: This article describes Uzbekistan as an important center of Islamic culture in Central Asia. Ancient historical mosques not only have religious significance, but also show that they are unique monuments that reflect the achievements of Islamic art and architecture. The article analyzes the decorations of the mosques of Uzbekistan from the point of view of art and architecture and highlights their artistic value and cultural significance.

Kalit so’zlar: masjid, girih, bezak, baddiy yechim, naqshlar, ganch, kalligrafiya.

Ключевые слова: мечеть, гирих, украшение, художественное решение, узоры, ганч, каллиграфия.

Keywords: mosque, girih, decoration, artistic solution, patterns, ganch, calligraphy.

Kirish. O‘zbekiston Markaziy Osiyo madaniyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo‘lib, uning hududida boy tarixiy va me’moriy meros shakllangan. Masjidlar bu hududning diniy va madaniy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat ibodat joyi sifatida, balki me’moriy san’atning noyob yodgorliklari sifatida ham katta ahamiyatga ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarning masjidlari xalq amaliy san’atining yuksak darajasini aks ettiradi. Ushbu maqolada IX–XVI asrlarda Markaziy Osiyo, xususan,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR




O‘zbekiston hududida qurilgan masjidlarning me’moriy va badiiy bezaklari o‘rganilib, ular orqali milliy madaniyatning rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi.

Masjidlar bezaklari nafaqat ularning estetik ko‘rinishini boyitadi, balki tarixiy va diniy ahamiyatni ham ifoda etadi. Badiiy uslublarning shakllanishi ko‘pincha ma’lum davrning iqtisodiy, madaniy va diniy sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan. Ushbu bezak turlari orasida geometrik naqshlar, kaligrafiya, mozaika texnikasi va yog‘och o‘ymakorligi alohida o‘rin tutadi. Har bir tur o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular milliy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Masjidlarning badiiy bezaklari va ularning xususiyatlari:

1. *Geometrik naqshlar:* uyg‘unlikka asoslangan va murakkab san’at. Geometrik naqshlar O‘zbekistondagi masjidlarning asosiy badiiy elementlaridan biri bo‘lib, ular milliy naqsh san’atining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu naqshlar o‘zining murakkabligi va xandasaviy aniqligi bilan ajralib turadi. Geometrik naqshlar matematika va san’atning birlashuvi natijasi bo‘lib, uchburchak, to‘rtburchak, murabba, aylana va yoy shakllarining uyg‘unligi asosida shakllanadi.

Bu naqshlar islom madaniyatining abadiylik va cheksizlik tamoyillarini o‘zida mujassam etadi. O‘zbekiston hududidagi geometrik naqshlar boshqa davlatlardagi naqshlar bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ular milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, naqshlar yaratish texnikasi va kompozitsion yechimlari bilan ajralib turadi. Geometrik naqshlarga XVI asrda, Toshkent shahrida bunyod etilgan Hazrati Imom masjididagi geometrik naqshlar misol bo’lishi mumkin (1-rasm). Ayniqsa, Samarqanddagi Bibixonim masjidi va Shohi Zinda majmuasi, obidalarda geometrik naqshlar o‘zining eng yuqori darajasiga yetgan.



1-rasm. Sakkiz qirralik yulduzdan iborat geometric naqsh. Illyustratsiya Toshkentdagi Hazrati Imom Jome masjidining ornamentidan asoslanib tuzilgan.

2. *Kaligrafiya:* diniy mazmun va badiiy san’at uyg‘unligi. Islom me’morchiligidagi kaligrafiya san’ati o‘ziga xos ahamiyatga ega. Islomda tirik mavjudotlarning tasvirini yaratish taqilanganligi sababli, naqshlar va yozuvlar san’atning asosiy unsurlariga aylangan. Kaligrafik bezaklarda Qur’on oyatlari, hadislar va boshqa diniy mazmunli matnlar






TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rin olgan. Masjid devorlari va eshiklarida arab yozuvi asosida ishlangan yozuvlar masjidlarning ruhiy va estetik mazmunini yanada boyitgan.

Arabesk uslubidagi kaligrafiya bezaklari islom san’atining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, bunday bezaklar arab alifbosi harflarining uyg‘un joylashuvi, simmetriya va takrorlanuvchi elementlarga asoslangan. O‘zbekiston masjidlarida kaligrafik yozuvlar orasida eng ko‘p uchraydigan so‘zlar "Alloh", "Muhammad" va Qur’on oyatlaridir. Ushbu yozuvlar masjidlarning muqaddasligini, ilohiy mohiyatini ifodalab, musulmonlarning e’tiqodini yuksak darajada saqlashga xizmat qiladi. Bunga misol qilib, Samarqand shahrida, XIV-asrda Temuriylar davrida bunyod etilgan Bibixonim masjididagi kalligrafik yozuvlar (2-rasm).



2-rasm. Bibixonim masjidi kalligrafik yozuv namunasi. Samarqand

3. *Mozaika bezaklari*: rang va naqsh uyg‘unligi. Mozaika texnikasi dastlab yunon va rim madaniyatida shakllangan bo‘lsa-da, islom san’atida yangi mazmun va shakllarni qabul qilgan. O‘zbekistondagi mozaika bezaklari islom me’morchiligidida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ular naqshlarning murakkabligi, ranglarning uyg‘unligi va diniy mazmun bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi.

Mozaika texnikasida ishlatalidigan naqshlar cheksizlik va xilma-xillik tushunchasini ifoda etadi. Bu bezaklarning o‘ziga xosligi – ularning simmetriya va aniqlikka asoslanganligida. Samarqand va Buxorodagi masjidlar mozaika texnikasi bo‘yicha islom san’atining eng yuqori darajasini namoyon qiladi. Bunga misol qilib, X-XI asrlarda qurilgan Xivadagi masjidlardagi mozaik bezaklar ko’rsatilgan. (3-rasm) Xususan, Registon maydoni madrasalari va masjidlari mozaika naqshlarining ajoyib namunalari hisoblanadi.



3-rasm.Xivadagi masjidlaridagi mozaik bezaklardan namunalar.

4. *Yog‘och o‘ymakorligi*: tabiiylik va san‘at uyg‘unligi. Markaziy Osiyo yog‘och o‘ymakorligi san‘ati o‘zining qadimiyligi va noyobligi bilan ajralib turadi. Masjidlarning ustunlari, eshiklari, derazalari va hatto mebellari o‘ymakorlik san‘ati yordamida bezatilgan. Ushbu uslub milliy me’morchilikda noyob yo‘nalish sifatida shakllangan. Yog‘och o‘ymakorligi ustalari daraxtning tabiiy go‘zalligini saqlab qolish bilan birga, uni naqshlar orqali yanada boyitib, milliy san‘atning nozik jihatlarini aks ettirgan.

Ushbu uslubda asosan yong‘oq, o‘rik, eman kabi daraxt turlari qo‘llanilgan. Masjidlar interyerida o‘ymakorlikning yuqori darajasi Xiva, Qo‘qon, Buxoro va Toshkentda kuzatiladi. Ayniqsa, ustunlar va eshiklarning nafis naqshlari milliy me’morchilikning eng yuksak yodgorliklari hisoblanadi. IX – asrda qurilgan, Xivadagi Juma masjididagi ustunlari, yog‘och o‘ymakorligida bezatilganligi misol bo‘la oladi (4-rasm).



4-rasm. Juma masjididagi ustunlar. Xiva

Xulosa. O‘zbekiston me’morchiligi qadimiy an’anaviy dizayn va iqlimga moslashtirilgan innovatsion xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan.Bizgacha qadimiy me’morchilikning birqancha durdonalari, jumladan, saroylar, maqbaralar, masjidlar va minoralar saqlanib





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qolgan. O‘zbekiston masjidlari me’morchiligidagi badiiy yechimlarning xilma-xilligi va boyligi milliy san’atning uzoq davom etgan rivojlanish jarayonidan dalolat beradi.

O‘zbekiston me’morchiligidagi masjidlarning bezaklari o‘ziga xos va noyob badiiy xususiyatlarga ega. Masjidlar, o‘zining estetik ko‘rinishi bilan, nafaqat diniy, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ham ega. Bezash uslublari va naqshlar, o‘zaro uyg‘unlashgan holda, masjidlarning me’moriy muhitini yaratib, diniy ruhni, ilohiylikni va go‘zallikni taqdim etadi. Geometrik naqshlar, kaligrafiya, mozaika va yog‘och o‘ymakorligi o‘zaro uyg‘unlashib, masjidlarning nafaqat diniy, balki estetik ahamiyatini ham oshiradi.

Ushbu bezak turlari faqat me’morchilik jihatidan emas, balki tarixiy, madaniy va ma’naviy jihatdan ham katta qadrga ega. Ularning rivojlanishi va shakllanishi o‘zbek xalqining san’atga bo‘lgan yuksak didi va an’alariga asoslangan. Shu bois, bu masjidlar nafaqat milliy, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida e’tiborga loyiqdir. O‘zbekiston masjidlari bugungi kunda ham xalqning madaniy iftixorini namoyon etuvchi noyob san’at asarlari sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Yadgarov N. D. et al. Bukhara-open-air museum //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV
2. Ядгаров Н. Д., Хакимова Г. А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана //Молодой ученый. – 2018.
3. Imanov B. Specificity Of Student Creative Activity //The American Journal of Social Science and Education Innovations/2 (10). – 2020.
4. Иманов Б., Имонова М. Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий //Общество и инновации. – 2021.
5. В. М. Макарова. Архитектура и искусство Средней Азии- 1965.

Internet ilovalar:

1. Toshpulatov F.U. Geometrik naqsh va ularning tahlili.”Inter education & Global study” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2023-yil, 40-43 betlar.
2. Пашаева Е. Мозаика и керамика в исламском искусстве: техники и стили